



## ROSSIYA FEDERATSIYASINING ELEKTRON SUD TIZIMI

*Baxromova Muxlisa Shuxrat qizi*

*Toshkent davlat yuridik universiteti*

*Ommaviy axborot vositalari huquqi yo'nalishi 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XXI asr boshidan buyon xorijiy davlatlar, xususan Rossiya davlatining huquqiy tizimiga jadal kirib kelayotgan "elektron adliya", "raqamli sud" va "elektron mediatsiya" kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda Rossiyaning "Moy Arbitr" va "GAS Pravosudie" platformalarining ishlash prinsiplari, ularning fuqarolar va tadbirkorlar uchun yaratgan qulayliklari hamda huquqiy tartibga solish masalalari ham ko'rib chiqilgan. Shuningdek, V.V. Yarkov, M.A. Fedotov va T.N. Neshatayeva kabi taniqli huquqshunos olimlarning raqamli adliya borasidagi qarashlari bayon etilgan. Maqolaning yakuniy qismida Rossiya tajribasidan kelib chiqib, O'zbekiston sud tizimiga shaxsiy gadjetlar orqali masofaviy ishtirok etish, "aqlli konstruktor" va yagona elektron xabardor qilish tizimlarini joriy etish bo'yicha takliflar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Elektron adliya, moy arbitr, GAS provosudie, raqamli sudya, veb-konferensiya, elektron mediatsiya, aqlli konstruktor

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli sud-huquq islohotlari markazida sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash hamda fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasini yuksaltirish masalalari turibdi. Xususan, odil sudlov sohasida inson omilini kamaytirish va korrupsiyaviy xavflarni bartaraf etish maqsadida tizimni raqamlashtirish eng ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Ushbu islohotlar nuqtayi nazaridan Rossiya Federatsiyasining elektron sudlov tajribasini o'rganish alohida ahamiyatga ega. Ushbu davlatning o'ziga xosligi shundaki, u hududiy jihatdan juda ulkan bo'lib, sud jarayonlariga masofadan ulanish va yagona ochiq elektron bazani shakllantirishda dunyodagi eng yetakchi va mukammal integratsiyalashgan ekotizimlardan birini yarata olgan. Umuman olganda, XXI asr boshidan boshlab



Rossiya va xorijiy davlatlar huquqiy sohasida “raqamli texnologiyalar”, “elektron adliya”, “elektron sud”, “intellektual sud”, “intellektual sud tizimi”, “raqamli sudya”, “xususiy onlayn sud”, “elektron mediatsiya” kabi tushunchalar faol ravishda kirib keldi. Yuqoridagi tushunchalarning ba‘zilarini ko‘rib chiqamiz. “Elektron adliya” atamasi ilk bor Rossiya Federatsiyasi Oliy sudi huzuridagi Sud departamentining 2015-yil 26-noyabrdagi 362-sonli buyrug‘ida rasmiy ravishda ta’riflangan. Ushbu hujjatga ko‘ra, elektron adliya — bu sud faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan holda, qonunda nazarda tutilgan protsessual harakatlarni amalga oshirish usuli va shaklidir.<sup>1</sup> Rossiya Federatsiyasi sud tizimida elektron sudlovni joriy etish rasman 2016-yildagi 220-FZ-sonli Federal Qonun qabul qilinishi hamda tegishli protsessual kodekslarga o‘zgartirishlar kiritilishi bilan huquqiy poydevorga ega bo‘ldi. Ushbu davlatda yagona tushuncha ostida ikkita mustaqil platforma faoliyat yuritadi. Birinchisi, iqtisodiy sudlar uchun mo‘ljallangan “Moy Arbitr” hamda umumyurisdiksiya sudlari uchun mo‘ljallangan “GAS Pravosudie” davlat avtomatlashtirilgan tizimidir.

Ushbu tizimlarning rivojlanish tendensiyasi shuni ko‘rsatmoqdaki, ular oddiy skaner qilingan hujjatlar almashinuvidan to‘liq avtomatlashtirilgan tahliliy tizimlarga aylanmoqda. Tizim tarkibida “Elektron kurer”, “Veb-konferensiya moduli” va sudyaga qaror loyihasini tayyorlashda yordam beruvchi “Sun’iy intellekt konstruktori” kabi quyi tizimlar ishlamoqda.

Rossiya Federatsiyasining sud tizimi o‘zining tarmoqlangan ierarxik tuzilishi bilan ajralib turadi va u asosan uchta yirik blokdan iborat. Axborot tizimlari ham aynan mana shu uchta mustaqil tarmoqning ehtiyojlaridan kelib chiqib shakllantirilgan:

Konstitutsiyaviy sud: Mamlakatning oliy qonuniga rioya etilishini nazorat qiluvchi maxsus organ. Bu sud o‘zining alohida yopiq elektron tizimiga ega.

<sup>1</sup> Vorontsova, I., & Sitdikova, R. (2024). The development of the ideas of “electronic court” and “electronic mediation” in Russian and foreign law. *Revista Brasileira de Alternative Dispute Resolution – RBADR*, 6(11), 183–194.



Umumyurisdiksiya sudlari tizimi: Bu tizimga eng quyidagi Dunyo sudyalari, tuman va shahar sudlari, viloyat sudlari, yangi tashkil etilgan kassatsiya va apellyatsiya sudlari hamda harbiy sudlar kiradi. Ushbu tarmoqning barchasiga yagona GAS Pravosudie" davlat avtomatlashtirilgan axborot tizimi xizmat ko'rsatadi. Bu tizim orqali mamlakat bo'ylab har yili millionlab fuqarolik va jinoiy ishlarning hisobi yuritiladi.

### 3. Arbitraj sudlar tizimi:

Tadbirkorlar va davlat organlari o'rtasidagi iqtisodiy nizolarni ko'radi. Bunga viloyat darajasidagi arbitraj sudlari, apellyatsiya arbitraj sudlari va okrug arbitraj sudlari kiradi.

Bu tarmoq uchun maxsus yaratilgan "Moy Arbitr" (Kadr.arbitr) tizimi dunyo miqyosida o'zining to'liq ochiqligi bilan tan olingan.

Rossiya Oliy sudi esa ham Umumyurisdiksiya, ham Arbitraj sudlarining ustidan umumiy nazoratni amalga oshiruvchi yagona oliy organ hisoblanadi. Axborot tizimlari nuqtayi nazaridan Rossiyaning o'ziga xoslini shundaki, "Moy Arbitr" va "GAS Pravosudie" bir-biridan mustaqil ishlasa-da, taraflar ikkalasiga ham yagona identifikatsiya tizimi orqali kira oladilar. Bu esa ulkan hududga ega davlatda odil sudlovning markazlashgan va uzluksiz ishlashini ta'minlaydi.

Ushbu tajribalarni milliy tizimimiz bo'lgan my.sud.uz portali bilan taqqoslasak, bir qator jiddiy farqlar va bizda mavjud kamchiliklar ko'zga tashlanadi. Bizning portalimiz fuqarolarga ariza topshirish va ish holatini kuzatishda yetarli darajada qulaylik yaratsa-da, unda ochiq ma'lumotlar bazasi tizimi Rossiyadagidek rivojlanmagan. "Moy Arbitr"da istalgan odam yopiq ishlardan tashqari barcha sud hujjatlarining to'liq matnini onlayn o'qiy oladi, my.sud.uz da esa qarorlarni qidirish va tahlil qilish imkoniyatlari cheklangan. Shuningdek, bizda hali taraflarning o'z shaxsiy smartfonlari orqali veb-konferensiya rejimida qatnashish imkoniyati texnik jihatdan oxiriga yetkazilmagan.

Ayni shu kamchiliklarni Rossiya tajribasini qo'llagan holda, milliy resurslarimiz va kadrlarimiz yordamida hal etish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun quyidagi chora-tadbirlar ko'rilishi lozim:



Tashkiliy jihatdan: Oliy sud huzurida yangi tashkil etilgan IT-markaz kuchlari bilan barcha tuman sudlarida veb-kameralar orqali biometrik identifikatsiya (Face-ID) tizimini o'rnatish ishlarini yakunlash;

Texnik jihatdan: my.sud.uz portaliga sud hujjatlari matnini to'liq qidirish imkonini beruvchi Big Data qidiruv tizimini joriy etish hamda mobil ilovalarni rivojlantirish;

Huquqiy jihatdan: Protsessual kodekslarga veb-konferensiya orgali uydan turib sud majlisida ishtirok etishning huquqiy oqibatlarini aniq belgilovchi normalarni kiritish. Yuqorida aytib o'tilgan Rossiya tizimidagi ikkita asosiy faoliyat olib boradigan platformalar bilan tanishamiz:

- “Kadr.arbitr” (Moy Arbitr): Iqtisodiy va tadbirkorlik nizolari ya'ni arbitraj uchun mo'ljallangan. Bu tizim asosan biznes, pullar va shartnomalar bilan ish olib boradi. Uni “yuristlarning Facebooki” deb ham atashadi, chunki u juda qulay va barcha ma'lumotlar ochiq. Bu dunyo miqyosida tan olingan eng qulay tizimlardan biri hisoblanadi. Masalan, biror insonning mebel zavodidan mijoz 100 ta stul xarid qilsa, lekin pulini bermasa eski tizim orqali u inson sudga borishi, navbat kutishi va qog'ozlarni topshirishi kerak edi. Ammo bu yangi tizim orqali ishda, ofisda o'tirgan holatda shartnomalarni saytga yuklaydi. Yuklab bo'lgandan so'ng ariza qabul qilinganlik haqida xabar keladi va o'sha inson sudga bormasdan turib har kuni saytga kirib, ishi qaysi bosqichda ekanligini ko'rib turishi mumkin. Sudlarning rasmiy saytlarida “Protsessual hujjatlarni elektron shaklda topshirish” bo'limi mavjud bo'lib, u Davlat avtomatlashtirilgan tizimi (DAT) “Adliya” Internet portalining “Elektron adliya” xizmati bilan integratsiyalashgan.<sup>2</sup> Bunday integratsiya fuqarolarga yagona kirish nuqtasi orqali barcha sud instansiyalari bilan muloqot qilish imkonini yaratadi. Bu tizimda ma'lumotlarning markazlashgan holda saqlanishi sud arxivlari bilan bog'liq byurokrtiyani butunlay yo'q bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu tizimda barcha hujjatlar, sudyaning qarorlari, tomonlarning arizalari — hammasi skaner qilingan holda PDF formatda turadi. Istalgan odam (agar ish yopiq

<sup>2</sup> Abramitov, S., Dneprovskaya, M., & Stepanenko, D. (2020). Elements of e-justice in Russian civil procedure: Realities and trends. European Proceedings of Social and Behavioural Sciences, 99.



bo'lsa) kirib, qaysi kompaniya kim bilan sudlashayotganini ko'rishi mumkin. Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik protsessual kodeksining 155.1-moddasi 1-qismiga ko'ra, tomonlar, ularning vakillari, ekspertlar va boshqa mutaxassislar uchun videokonferensiya tashkil etish faqat tegishli iltimosnoma berilganda mumkin. Rossiya Federatsiyasi Arbitraj protsessual kodeksining 153.1-moddasiga ko'ra, videokonferensiya o'tkazishni rad etishning ikki asosiy sababi mavjud:

- yopiq sud majlisi o'tkazish zarurati;
- texnik imkoniyatning yo'qligi.

Shuningdek, mazkur kodeksning 159-moddasi 5-qismiga ko'ra, videokonferensiya o'tkazish haqidagi iltimosnoma o'z vaqtida berilmagan bo'lsa yoki uni ko'rib chiqish sud jarayonini kechiktirsa va to'sqinlik qilsa, u rad etilishi mumkin.<sup>3</sup> Ushbu cheklovlar raqamlashtirish jarayonida ham odil sudlovning fundamental prinsiplari, xususan, davlat siri va sud jarayonining uzluksizligi ta'minlanishi zarurligini ko'rsatadi. Texnik nosozlik sababli majlisning qoldirilishi taraflarning huquqlari buzilishining oldini olishga xizmat qiladi. Sud majlisida ishtirok etmagan, lekin ishda qatnashayotgan fuqarolarga sud qarori nusxasi ularning iltimosi yoki roziligi bilan sudning rasmiy saytida, faqat tomonlar va boshqa protsess ishtirokchilari kirish huquqiga ega bo'lgan bo'limda joylashtirilishi mumkin. Shuningdek, sud qarori nusxalari ishda qatnashadigan, lekin sud majlisida bo'lmagan davlat organlari va boshqa tashkilotlar vakillariga cheklangan rejimda sudning rasmiy saytida joylashtirish orqali yuborilishi mumkin.<sup>4</sup> Shu orqali sud tizimida shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi va ochiqlik tamoyili o'rtasidagi muvozanat ta'minlanadi. Qarorlarning raqamli rejimda yuborilishi pochta xarajatlarini tejash bilan cheklanmay, qaror bo'yicha shikoyat qilish muddatlarini ham hisoblash imkonini yaratadi.

- "Pravosudie" (GAS Pravosudie): Umumyurisdiksiya sudlari (fuqarolik, jinoiy, ma'muriy) uchun mo'ljallangan davlat avtomatlashtirilgan tizimi hisoblanadi.

<sup>3</sup> Kvitsiniya, N., Osadchenko, E., & Belova, O. (2021). Selected aspects of legal regulation of e-justice in Russia. SHS Web of Conferences, 109, 01021. <https://doi.org/10.1051/shsconf/202110901021>

<sup>4</sup> Abramitov, S., Dneprovskaya, M., & Stepanenko, D. (2020). Elements of e-justice in Russian civil procedure: Realities and trends. European Proceedings of Social and Behavioural Sciences, 99.



Bu tizim ancha kengroq va murakkabroq bo‘lib, oddiy odamlarning kundalik muammolari — ajrashish, aliment, meros, jinoiy ishlar yoki qo‘shni bilan yer talashish kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. Uning eng afzal tomoni esa Rossiyadagi barcha tuman va shahar sudlarini bitta tarmoqqa birlashtiradi. Bu yerda asosan “Shaxsiy kabinet” orqali muloqot qilinadi. Shaxsni tasdiqlash uchun davlat xizmatlari login-parolidan foydalaniladi. Bunga ham bir misol ko‘radigan bo‘lsak, Moskvada yashaydigan fuqaro Vladivostokdagi minglab km uzoqda uyiga taalluqli meros masalasida sudga da’vo berishi kerak. Eski usulda u Vladivostokka uchib borishi yoki u yerdan advokat yollashi kerak edi. “GAS Pravosudie” orqali shunchaki “Pravosudie” portaliga kirish va uydan turib arizani yuborish kifoya. Sud majlisi bo‘ladigan kuni esa kompyuter kamerasini yoqib, videokonferensiya orqali sudga qatnashish mumkin. Sudya o‘sha insonning yuzini tizimdagi pasport rasmi bilan solishtiradi va majlisni boshlayveradi. Yuqorida aytilgan har ikkala tizim ham, asosan, veb-sayt ko‘rinishida ishlaydi, biroq mobil qurilmalar uchun moslashtirilgan interfeyslari ham mavjud. Undan tashqari bu “E-Justice” tizimiga kiradi va “Elektron hukumat”ning uzviy qismi hisoblanadi. Rossiya Federatsiyasidagi elektron adliya, mediatsiya va boshqa muqobil nizolarni hal etish shakllarini tartibga soluvchi huquqiy va normativ-huquqiy bazani tizimli tahlil qilish amalga oshirildi. Tadqiqotda quyidagi hujjatlar ko‘rib chiqildi:

- 2020–2024-yillarda o‘zgartirilgan “Sudlar faoliyati to‘g‘risida ma’lumot olish” bo‘yicha 262-FZ-sonli Federal qonun;
- “O‘raliq shaxs ishtirokida (mediatsiya tartibi) muqobil nizolarni hal qilish” bo‘yicha 123-FZ-sonli Federal qonun;
- Fuqarolik, Tijorat va Ma’muriy protsessual kodekslar;
- Rossiya Federatsiyasi Oliy sudi huzuridagi Sud departamenti tomonidan “Elektron ish jildi” tizimi, hujjatlarni onlayn topshirish va video majlislarni tartibga soluvchi byurokratik hujjatlar.<sup>5</sup>

<sup>5</sup> Gontar, N. (2025). Hybrid justice in the Russian Federation, 2020–2025: The impact of the link between e-justice, court-annexed mediation and ODR on the quality of judicial reasoning and the ... European Scientific e-Journal, 46: 66.



Mazkur normativ-huquqiy bazaning tahlili shuni ko'rsatadiki, elektron sudlov tizimi shunchaki tajriba tariqasida emas, balki allaqachon qat'iy qonuniy asosga ega bo'lgan barqaror mexanizm sifatida shakllanib bo'lgan.

Rossiya Federatsiyasining elektron sudlov tizimi — bu shunchaki kompyuter dasturi emas, balki adolat va texnologiyaning kesishuvi desak mubolag'a bo'lmaydi. Italiya va Buyuk Britaniya bilan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, Rossiya modeli birlamchi raqamlashtirish bosqichini yakunlagan va texnologiya endi nafaqat tezlik, balki adliya sifatiga ham ta'sir qiladigan darajaga yetgan.<sup>6</sup> Bu tizimni o'rganib chiqqan olimlar uni “yuridik inqilob” deb ham atashadi, chunki u sudya va fuqaro o'rtasidagi katta masofani birgina tugma bosish tezligi darajasigacha yaqinlashtiradi. Ba'zi olimlarning shu tizimlar haqidagi fikrlarini ko'rib chiqamiz:

- Vladimir Vladimirovich Yarkov: "Raqamli Adolat" me'mori

Professor V.V. Yarkov Rossiyada elektron sudlov nazariyasining otasi hisoblanadi. Sababi uning qarashlari shunchaki texnik qulaylikka emas, balki huquqiy tenglikka qaratilgan. Yarkovning fikricha, elektron sudlov — bu “Adolatga kirish eshigining kalitidir”. U o'z ishlarida ta'kidlaydiki, agar fuqaro sudga borish uchun vaqt va yo'l xarajatidan qo'rqsa, u o'z huquqini himoya qilishdan voz kechadi. Elektron tizim (ayniqsa “Moy Arbitr”) esa bu qo'rquvni yo'qotishga sabab bo'ladi. Yarkov yana shunday deydi: “Sud binosi hashamatli ustunlardan emas, balki har qanday odam uydan turib kira oladigan qulay saytdan iborat bo'lishi kerak. Bu korrupsiyani yo'qotishning eng to'g'ri yo'lidir, chunki kompyuter bilan “kelishib” bo'lmaydi. Hozirgi kunda yashar ekanmiz uning fikrlari naqadar to'g'ri ekanligining guvohi bo'lmoqdamiz.

- Iron Neo kompaniyasining rivojlanish direktori va ABBYY kompaniyasi hamkori Ruslan Xusnulin “Sudlar faoliyatida uzluksiz skanerlash tizimini joriy etish” mavzusida ma'ruza qildi. U bugungi kunda sudlar ishini optimallashtirish uchun ko'plab hujjatlarni skanerlash orqali ularni yagona model

<sup>6</sup> Gontar, N. (2025). Hybrid justice in the Russian Federation, 2020–2025: The impact of the link between e-justice, court-annexed mediation and ODR on the quality of judicial reasoning and the ... European Scientific e-Journal, 46-66.



asosida shakllantiruvchi dastur yaratish imkoniyati mavjudligini ta'kidladi. Bunday tizim bir xil turdagi hujjatlarni "asosiy nuqtalar" orqali skanerlab, barcha zarur ma'lumotlarni jamlagan hujjatlarni yaratishga xizmat qiladi.<sup>7</sup>

- Mixail Aleksandrovich Fedotov: "Algoritmlashgan Huquq" targ'ibotchisi

Fedotov — axborot huquqi bo'yicha dunyo miqyosidagi ekspert hisoblanadi. U elektron sudlovni insoniyatning "raqamli huquqi" sifatida o'rganadi va ushbu tizimni "Inson omilidan xoli hudud" deb ataydi. Fedotovning fikricha, sud hujjatlarining elektron bo'lishi — bu shunchaki qog'ozni skaner qilish emas, balki jarayonlarni algoritmlashdir. U "aqlli" kontraktlar va avtomatik qarorlar qabul qilish g'oyasini qo'llab-quvvatlaydi. Fedotov bizga shuni tushuntiradiki, kelajakda sudya faqat eng murakkab insoniy taqdirlar bilan shug'ullanishi kerak. Oddiy soliq qarzlari yoki jarimalar kabi oddiy ishlarni esa xatosiz ishlaydigan dastur (AI) hal qilishi lozim. Bu sudyaning charchashidan kelib chiqadigan xatolarni yo'q bo'lishiga sabab bo'ladi.

- Aleksandr Bonner Rossiyada fuqarolik protsessual huquq fanining yirik namoyandalaridan biri bo'lib, Kutafin nomidagi Moskva davlat yuridik universitetining Fuqarolik va ma'muriy sud ishlarini yuritish kafedrasida professori hisoblanadi. Professor Bonner "Rossiyada sud islohoti: bir qadam oldinga, ikki qadam orqaga" nomli ma'ruzasida odil sudlovni amalga oshirish masalalarini muhokama qilib, xorijiy davlatlar tajribasi va "robot-sudya" loyihasiga murojaat qildi. Uning fikricha, hech bo'lmaganda yaqin kelajakda robot arbitr (sudya) vazifasini to'liq bajara olmaydi — barcha omillarni inobatga olib adolatli qaror chiqarish faqat inson qo'lidan keladi.<sup>8</sup>

- Tatyana Nikolayevna Neshatayeva: "Xalqaro Ishonch" kafolati

Yuridik fanlar doktori va taniqli sudya sifatida u elektron sudlovning xalqaro huquqiy maqomini o'rgangan. Neshatayeva elektron sud tizimini "Iqtisodiy

<sup>7</sup> Valeev, D., & Bazilevskikh, E. (2018). E-justice and information technologies in civil procedure. BRICS Law Journal, 5(4), 175–179.

<sup>8</sup> Valeev, D., & Bazilevskikh, E. (2018). E-justice and information technologies in civil procedure. BRICS Law Journal, 5(4), 175–179.



barqarorlik vositasi” deb hisoblaydi. Uning ilmiy xulosalariga ko‘ra, elektron sud tizimi ochiq bo‘lgan davlatga investorlar qo‘rqmasdan sarmoya kiritadi. Chunki ular har bir tiyin va har bir da‘voni onlayn kuzatish imkoniga ega bo‘ladi. Uning falsafasi sodda: “Adolat faqat o‘rnatilishi kifoya emas, u ko‘rinib turishi ham kerak”. Agar tadbirkor sud majlisini o‘z ofisidan kuzata olsa, unda davlatga nisbatan ishonch uyg‘onadi.

Ushbu olimlarning umumiy sharhlarini birlashtirsak, Rossiya elektron sudlov tizimining uchta asosiy afzalliklarini ko‘rishimiz mumkin:

1. Sudning shaffofligi: Har bir hujjat “iz” qoldiradi. Hech kim hujjatni sanasini o‘zgartira olmaydi yoki yo‘q qila olmaydi.

2. Vaqtni tejash: Rossiyada “Moy Arbitr” orqali da‘vo berish 15-20 daqiqa vaqt oladi. Bu eski tizimdagi bir necha kunlik ovoragarchilikka chek qo‘ydi.

3. Masofaviy ishtirok: Inson o‘z huquqini himoya qilish uchun sudga borishga majbur emas — oddiy smartfon orqali sudda ishtirok eta olishadi. Bu olimlar elektron sudni shunchaki texnika deb emas, balki “Inson qadrini yuksaltiruvchi vosita” deb o‘rganishgan. Chunki texnologiya navbatlarni, byurokratiyani va sud xodimining qo‘polligini yo‘qotadi, faqat qonun ustuvorligini qoldiradi. Rossiya Federatsiyasi sud tizimida elektron sudlovni joriy etish rasman 2016-yildagi 220-FZ-sonli Federal Qonun qabul qilinishi hamda tegishli protsessual kodekslarga o‘zgartirishlar kiritilishi bilan huquqiy poydevorga ega bo‘ldi. Ushbu davlatda yagona tushuncha ostida ikkita mustaqil platforma faoliyat yuritadi. Birinchisi, iqtisodiy (arbitraj) sudlar uchun mo‘ljallangan "Moy Arbitr" (Kadr.arbitr) hamda umumyurisdiksiya sudlari uchun mo‘ljallangan "GAS Pravosudie" davlat avtomatlashtirilgan tizimidir.

Ushbu tizimlarning rivojlanish tendensiyasi shuni ko‘rsatmoqdaki, ular oddiy skaner qilingan hujjatlar almashinuvidan to‘liq avtomatlashtirilgan tahliliy tizimlarga aylanmoqda. Tizim tarkibida "Elektron kurer", "Veb-konferensiya moduli" va sudyaga qaror loyihasini tayyorlashda yordam beruvchi "Sun'iy intellekt konstruktori" kabi quyi tizimlar ishlamoqda.



Ushbu tajribani milliy tizimimiz bo'lgan my.sud.uz portali bilan taqqoslasak, bir qator jiddiy farqlar va bizda mavjud kamchiliklar ko'zga tashlanadi. Bizning portalimiz fuqarolarga ariza topshirish va ish holatini kuzatishda yetarli darajada qulaylik yaratsa-da, unda ochiq ma'lumotlar bazasi tizimi Rossiyadagidek rivojlanmagan. "Moy Arbitr"da istalgan odam yopiq ishlardan tashqari barcha sud hujjatlarining to'liq matnini onlayn o'qiy oladi, my.sud.uz da esa qarorlarni qidirish va tahlil qilish imkoniyatlari cheklangan. Shuningdek, bizda hali taraflarning o'z shaxsiy smartfonlari orqali sud binosiga bormay veb-konferensiya rejimida qatnashish imkoniyati texnik jihatdan oxiriga yetkazilmagan.

Ayni shu kamchiliklarni Rossiya tajribasini qo'llagan holda, milliy resurslarimiz va kadrlarimiz yordamida hal etish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun quyidagi chora-tadbirlar ko'rilishi lozim: So'nggi paytlarda Rossiyada mediatsiya institutini rivojlantirish muammolariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Mediatsiya — bu tomonlar o'zaro kelishilgan, xolis va neytral mediator ishtirokida uchrashib, ular o'rtasidagi turli manfaatlar mavjud bo'lgan sharoitda o'zaro maqbul va hayotiy yechimga erishish uchun muzokara olib boradigan jarayondir. Mediatsiya masalalari Rossiyada ham, xorijda ham faol o'rganilmoqda. Xususan, Rossiya Federatsiyasida mediatsiya institutining huquqiy asosi sifatida 2010-yilda qabul qilingan "Mediator ishtirokida nizolarni tartibga solishning muqobil tartibi (mediatsiya jarayoni) to'g'risida"gi Federal Qonun xizmat qiladi. Bundan tashqari, bugungi kunda olimlar mediatsiyani yanada kengroq maqsadga ega deb hisoblamoqda. Mediatsiya biznesga ko'rsatiladigan maslahat xizmatlari majmuasining ajralmas qismi bo'lishi mumkin bo'lib, korxonaning dolzarb muammolarini hal etishga qaratiladi. Shuningdek, mediator eng maqbul harakat yo'lini taklif qilishi, inqirozga qarshi choralarni ishlab chiqish va amalga oshirishda yordam berishi, vaziyatdan chiqishning muqobil va noodatiy yo'llarini topishga ko'maklashishi mumkin.<sup>9</sup>

<sup>9</sup> Pavlovskiy, A. (2020, November 9). Mediation in Russia: Why do disputing parties so rarely resort to mediation before going to court? Zakon.ru.



Rossiya elektron sud tizimining quyidagi ba'zi ijobiy taraflarini O'zbekistonda ham tatbiq qilsa yanada insonlar uchun qulay bo'lar edi:

\* Veb-konferensaloqa orqali sud majlislarida masofaviy ishtirok etish

Rossiya tajribasidagi eng mashhur yangiliklardan biri — bu sud jarayonlarida shaxsiy gadjetlar, smartfon yoki noutbuk orqali ishtirok etish imkoniyatidir. Hozirgi kunda O'zbekistonda ham masofaviy sud majlisi degan tushuncha bor, ammo bunda, taraflar boshqa bir sud binosiga borib, o'sha yerdagi maxsus studiyadan sudga ulanish tushuniladi. Rossiyada esa foydalanuvchi “Davlat xizmatlari” portali orqali identifikatsiyadan o'tadi va biometrik ma'lumotlar yordamida o'z shaxsini tasdiqlab, uydan yoki ofisdan chiqmagan holda sud majlisiga ulanadi. Bu funksiya birinchi navbatda fuqarolarning vaqtini va mablag'ini tejaydi. Ayniqsa, tadbirkorlar va boshqa viloyatda yashovchi fuqarolar uchun yuzlab kilometr yo'l bosib sudga kelish ehtiyoji yo'qoladi.

\* Sud qarorlari va hujjatlarini shakllantirishda “Aqlli konstruktor” tizimi

Rossiyaning “Moy Arbitr” tizimida sudyalari va sud apparati xodimlari uchun maxsus “hujjatlar konstruktori” mavjud bo'lib, bu tizim sun'iy intellektga tayanib, ko'p takrorlanadigan va nizosiz deb hisoblangan ishlar masalan, aliment undirish, kommunal to'lovlar bo'yicha qarzdorlik yoki bank kreditlari bo'yicha sud qarorlari loyihasini avtomatik tarzda tayyorlab beradi. Tizim da'vo arizasidagi ma'lumotlarni qonunchilik normalari bilan solishtiradi va sudyaga tayyor shablonni beradi. O'zbekiston sudlaridagi eng katta muammolardan biri — bu sudyalarning ish hajmi haddan tashqari yuqoriligidir. Sudyalari vaqtining 60-70 foizini texnik ishlar, ya'ni qaror matnini yozishga sarflashadi. Ushbu funksiya joriy etilsa, sudyalari e'tiborini murakkab huquqiy tahlilni talab qiladigan jiddiy ishlarga qarata oladi, bu esa sud qarorlarining sifatini oshiradi.

Rossiya tizimining yana bir o'ziga xosligi — “Elektron kurer” xizmatidir. Bu tizim nafaqat sud majlisi vaqti haqida xabar beradi, balki ishning har bir bosqichi, arizaning qabul qilinishi, ekspertiza tayinlanishi, qarorning ijroga chiqishi haqida taraflarni real vaqt rejimida xabardor qilib boradi. Eng muhimi, sud qarori qonuniy kuchga kirishi bilan u avtomatik tarzda ijro organlariga elektron shaklda yuboriladi



va ijro jarayoni ham sud portalida ko‘rinib turadi. Bizda ko‘pincha sud qarori chiqqandan so‘ng uning ijrosini kuzatish murakkab bo‘ladi yoki xabarnomalar kechikib borishi natijasida sud majlislari qolib ketadi. Ushbu tizimning joriy qilinishi “inson omili”ni kamaytiradi va “xat bormadi”, “xabarim yo‘q edi” degan bahonalarga o‘rin qoldirmaydi. Bu korrupsiyaning oldini olishda eng samarali vositadir. Yuqoridagi yangiliklarni O‘zbekistonda joriy qilish uchun Oliy sud va Raqamli texnologiyalar vazirligi hamkorlikda yagona platforma ustida ishlashi lozim. Huquqiy jihatdan esa Iqtisodiy va Fuqarolik protsessual kodekslariga “Veb-konferensiya orqali masofaviy ishtirok etish tartibi” nomli yangi moddalar kiritilishi kerak. Agar yuqoridagi o‘zgarishlar amalga oshirilgan taqdirda, ularga mas’ul idoralar Oliy sud, Raqamli texnologiyalar vazirligi va Adliya vazirligi huzuridagi “Adolat” IT-markazi bo‘ladi, albatta. Undan tashqari u yangiliklar haqida Iqtisodiy va Fuqarolik protsessual kodekslariga “Veb-konferensiya orqali sud majlisida ishtirok etishning tartibi va shartlari” degan bob qo‘shilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonun esa elektron sudlovning maqomi va uning qog‘oz shaklidagi sud bilan teng huquqliligini belgilash kerak. Rossiyaning “GAS Pravosudie” tizimini yaratish va modernizatsiya qilishga yillar davomida yuzlab million dollar sarflangan. O‘zbekiston sharoitida mavjud E-SUD tizimini “Moy Arbitr” darajasiga ko‘tarib dastlabki texnik baza yaratish uchun taxminan \$3 mln – \$5 mln atrofida resurs kerak bo‘ladi. Bu orqali esa bir yilda millionlab so‘mlik qog‘oz va pochta xarajatlari tejaladi, sud qarorlarining ijro etilish muddati 30-40% ga qisqaradi. Yuqoridagi ma’lumotlar va Rossiyaning rivojlangan e-sud tizimidan kelib chiqib o‘zimizning milliy elektron sud platformalari rivojlanishida quyidagi aniq takliflarni bera olaman. Albatta ishonamanki, agarda ushbu takliflar amalda joriy etilsa, bu aholi uchun juda katta qulaylik yaratgan bo‘lar edi:

- Fuqarolik va Iqtisodiy protsessual kodekslariga yangi modda kiritib, sud majlislarida uydan yoki ofisdan turib, OneID va Face-ID orqali masofaviy qatnashish huquqini qonuniy mustahkamlash;



- O‘zbekiston sudlarida “Kichik da‘volar” masalan soliq, kommunal to‘lovlar bo‘yicha sun‘iy intellekt yordamida “Sud buyrug‘i” loyihalarini inson omilisiz avtomatik shakllantirish modulini joriy etish;

- Tadbirkorlarning ishonchini oshirish maqsadida, Rossiya “Moy Arbitr” tizimi kabi yuridik shaxslarning nizolashish tarixini ko‘rish imkonini beruvchi to‘liq ochiq va shaffof “Arbitraj ishlari kartotekasi”ni ishga tushirish.

Xulosa o‘rnida Rossiya elektron sudi — bu “Vaqt — eng oliy qadriyat” tamoyili asosida qurilgan tizimdir. O‘zbekiston uchun bu tajribani o‘zlashtirish — zamonaviy, adolatli va ochiq jamiyat sari tashlangan eng katta qadam bo‘ladi. Albatta yuqorida sanalgan jihatlarni milliy elektron sud tizimi doirasida qo‘llash qiyinchilik tug‘diradi. Ammo, tizim ishga tushganidan keyin keltiradigan foydalar va u kamaytira oladigan zararlarni prognoz qilsak, qancha qiyinchiliklarga qaramasdan ularni amalda joriy qilish kerakligini anglaymiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vorontsova, I., & Sitdikova, R. (2024). The development of the ideas of “electronic court” and “electronic mediation” in Russian and foreign law. *Revista Brasileira de Alternative Dispute Resolution – RBADR*, 6(11), 183–194.
2. Abramitov, S., Dneprovskaya, M., & Stepanenko, D. (2020). Elements of e-justice in Russian civil procedure: Realities and trends. *European Proceedings of Social and Behavioural Sciences*, 99
3. Kvitsiniya, N., Osadchenko, E., & Belova, O. (2021). Selected aspects of legal regulation of e-justice in Russia. *SHS Web of Conferences*, 109, 01021. <https://doi.org/10.1051/shsconf/202110901021>
4. Abramitov, S., Dneprovskaya, M., & Stepanenko, D. (2020). Elements of e-justice in Russian civil procedure: Realities and trends. *European Proceedings of Social and Behavioural Sciences*, 99.
5. Gontar, N. (2025). Hybrid justice in the Russian Federation, 2020–2025: The impact of the link between e-justice, court-annexed mediation and ODR on the quality of judicial reasoning and the ... *European Scientific e-Journal*, 46–66.



6. Valeev, D., & Bazilevskikh, E. (2018). E-justice and information technologies in civil procedure. *BRICS Law Journal*, 5(4), 175–179
7. Pavlovskiy, A. (2020, November 9). Mediation in Russia: Why do disputing parties so rarely resort to mediation before going to court? *Zakon.ru*.
8. The Council of Judges of the Russian Federation. (2019). The concept of information policy of the legal system in 2020–2030. Moscow.
9. Plenum of the Supreme Court of the Russian Federation. (2015, September 29). Ruling No. 43. Moscow.
10. State Duma of the Russian Federation. (2002, July 24). Code of Arbitration Procedure of the Russian Federation (No. 95-FZ). Moscow.